



3-SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKILLASH

Yunusova Dilnozaxon Ibrohimovna

Farg'ona viloyati, Quva tumani 48- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7973689>

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2023

Accepted: 25th May 2023

Online: 26th May 2023

KEY WORDS

Shaxs, ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z, inovatsiya, ijodkorlik, erkin fikrlilik, nutq madaniyati, dars samaradorligi.

ABSTRACT

Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim.

Boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi darslari o'z mohiyati, maqsad vavazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa fanlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning eng samarali va zamonaviy metodlaridan keng foydalanilmoqda. Bunday metodlarni qo'llash hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim salohiyati o'sib bormoqda.«Aqliy hujum» metodi-Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni xosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

“Klaster”metodi-“Klaster” so'zi lotincha «g'uncha, bog'lam» manosi anglatadi. U mavjud bilimlarni ifodalash, muayyan mavzu bo'yicha o'ylash jarayonida yangicha fikrlar uyg'otadi. Klaster tarkibiga kiritilgan asosiy tushuncha, g'oyalar o'rtasidagi muhim bo'lgan bog'lanishlarni aniqlash, keng ko'lamlilik fikr yuritishni rivojlantiradi. “Atrof”ga turlicha nazar solishga o'rgatadi.Klaster tuzishni mavzuni mukammal o'rganmasdan turib qo'llagan ma'qul. Klaster muhokama qilinayotgan tushuncha, mavzuga so'z yoki jumlagi taalluqli sifatlarni malum yo'nalishi bo'yicha guruhlanadi.Klaster tuzish ketmakteligi:

Sinf doskasi yoki qog'oz varag'iga muhokama qilinadigan mavzudagi asosiy tushuncha, “kalit” so'z yoki gap yozing.Sizni fikringizcha shu mavzuga, tushuncha , “kalit” so'zga



tegishli bo'lgan so'zlar yoki gaplarni yozing. Yozilgan tushuncha, g'oyalar o'rtasida bir-biriga mos bog'lanishni o'ring. Imkoningiz boricha turli variant, g'oya, fikrlarni ko'proq yozishga harakat qiling. Eslaganingizning barchasini yozing.

"Juftini tanlang" metodi. Bu o'yinda o'qituvchi juft sifatning birinchi qismini aytib boraveradi, o'quvchilar esa uning har ikkala qismini daftarlariga yozib boradi. Berilgan sifatning juftini to'g'ri yozgan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladilar. Namuna: mayda-chuyda, yaxshi-yomon, past-baland, uzoq-yaqin, shirin-achchiq, oq-qora, va hokozolar. Bunday o'yinlardan foydalangan holatda dars o'tish o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini oshiradi. Ya'ni savollarga javob berish jarayonida va fikrlar almashinishda o'quvchilarning axloqiy tarbiyasi oshadi.

F.S.M.U. metodi - bu metod mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha talabalar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish va mashq qildirish metodidir. Bu metod talabalarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o'zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o'rgatadi. FSMU metodining umumiy sxemasi:

F - fikringizni bayon eting;

S - fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M - ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U - fikringizni umumlashtiring. O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhlar yoki alohida talabalarga tarqatadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishdagi asosiy e'tiborni biz to'rtta asosiy ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Boshlang'ich sinfning savod o'rgatish ya'ni alifbo davri yakunlangach, ona tili va o'qish savodxonligi darslari boshlanadi va 4-sinf yakuniga qadar izchil davom etadi. Ushbu yangi darslikning yutuq tomonlari aytib o'tadigan bo'lsak, eski darslikda tinglab tushunish kompetensiyasi rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa yangisida bu kompetensiyani rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida mashqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa ochiq ma'lumotlarga yoki tarbiyaviy-didaktik ma'lumotlarga qaratilgan edi. Ushbu qo'limizdagi darslikda esa o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar berilgan. Shu paytgacha ona tili o'qitishdan maqsad, tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi qoidalarni quruq yod iborat edi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yoshida bunday qoidalar ularga kerak emas. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida asosiy e'tibor va mashqalar ham o'quvchini nutqini o'stirishga qaratilgan bo'lishi, uni duntoqarishini, kengaytirib fikrlashga undashi kerak. Hozirgi kundagi mazkur darslik esa aynan shu tartibda, unda faqat muhim qoidalarga qoldirilgan va o'quvchining yoshiga mos rang-barang tasvirlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun "Mashq daftari" ham bo'ladi.



Bugungi kun o'qituvchilaridan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni tala betmoqda. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axloqiy tarbiyalashda har bir metoddan unumli foydalanish bu o'qituvchining malakasiga bog'liq.

References:

1. "Ona tili o'qitish metodikasi" Karima Qosimova Toshkent-2019
2. "Ona tili va o'qish savodxonligi metodik qo'llanma" maktab o'qituvchilari nashri. Toshkent-2021
3. "Boshlang'ich ta'lim" telegram bot kanal